



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yilida 8-sinflar uchun
IV chorak geografiya fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinflar uchun geografiya fanidan IV chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Andijon viloyati.	1		
2.	Farg‘ona viloyati.	1		
3.	Namangan viloyati	1		
4.	Zarafshon iqtisodiy rayoni/Samarqand viloyati	1		
5.	Navoiy viloyati./ Buxoro viloyati	1		
6.	4-BSB (50 ball)	1		
7.	Janubiy iqtisodiy rayon./ Qashqadaryo viloyati	1		
8.	Surxondaryo viloyati.	1		
9.	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni./ Xorazm viloyati	1		
10.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1		
11.	4-CHSB (40 ball)	1		
12.	Amaliy mashg‘ulot./ Umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Andijon viloyati.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Yer yuzi, shu jumladan, mamlakatimiz tabiati haqida ma'lumot berish.

Kishilar faoliyati, hayot tarzi va ishlab chiqarishning hududiy farqlanishi kabi insoniyat, jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liqligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: jonajon Vatanimiz - O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rgatish. Mamlakatimizda ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilishga va umuman aholi turmushining farovonlashuviga yordam beruvchi geografik bilimlar berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rgatish bu vazifaning muhimligini tushuntirish, o'z fuqarolik burchini bajarishiga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishiga ko'maklashish. Iqtisodiy geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni tasvirlash, bayon etish usullarini o'rgatish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

geografiyaga oid adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, geografik xarita va atlaslardan ma'lumot manbalari sifatida foydalana olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internetsaytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish, kundalik hayotda duch keladigan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar, jumladan, mamlakat iqtisodiyotiga doir yangiliklar haqidagi lavhalarining mohiyatini anglay olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

muntazam ravishda o'z ustida ishlash, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda, geografik manbalar bilan mustaqil tarzda ishlay olish, o'zining tabiiy-ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o'stirib borish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Andijon viloyati mamlakatning eng sharqiy viloyatidir. Viloyatning g'arbi tekislik, sharqi qir-adirlardan iborat bo'lib, tog' tizmalariga tutashgan.



Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, ipakchilik. **Sanoatning asosiy tarmoqlari:** mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektroenergetika, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati.

Viloyat qishloq xo'jaligi rivojlangan (101-rasm). O'zlashtiriladigan yerlar deyarli qolmagan. Paxtaning yalpi hosili faqat hosildorlikni ko'tarish hisobiga oshirilmoqda. Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, asosan, shaharlar atrofida yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida bog'dorchilik salmoqli o'rin tutadi. Bog' va tokzorlar adirlar hisobiga kengaymoqda. Ixtisoslashgan bog'dorchilik xo'jaliklari bor.

Chorvachiligida qo'y va echkilarning salmog'i katta. Qoramol, asosan, sut va go'sht uchun boqiladi. Pillachilik viloyat xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Viloyatda sanoat ham yuqori darajada rivojlangan bo'lib, unda 160 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Korxonalar orasida Asaka avtomobil zavodi, Andijon avtomobil o'rindiqlari zavodi, irrigatsiya mashinasozligi zavodi, «Semurg'» trikotaj aksiyadorlik birlashmasi yirik korxonalar hisoblanadi. Korxonalar, asosan, Andijon sanoat tugunida joylashgan. Viloyat elektr energiyani iqtisodiy geografik rayonning birlashgan energetika tizimidan oladi. Kampirravot suv omborida quvvati 100 ming kilovattli GES qurilgan. Andijon mamlakatda ilk neft olingan markazlardan biridir. Neft quvur orqali Farg'ona viloyatidagi neftni qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Xo'jaobodda mamlakatimizdagi eng yirik yerosti gaz ombori barpo etilgan. Undagi gazdan Andijon va Asaka shaharlariga ham yetkazib beriladi (102-rasm).

Shaharlari. Andijon obikor dehqonchilik markazida joylashgan. Neft, gaz va binokorlik materiallari konlari shaharning shundoq yonida. Shaharda og'ir, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga tegishli 40 taga yaqin korxona ishlab turibdi. Ulardan paxta zavodi, to'qimachilik hamda trikotaj fabrikalari mamlakat miqyosidagi yirik korxonalar hisoblanadi. Shoyi to'qish korxonalar viloyat pillakorlari tomonidan pilla bilan ta'minlab turiladi. Shaharda Andijon davlat universiteti, tibbiyot, qishloq xo'jalik, mashinasozlik institutlari bor. Ko'plab teatrlar, kutubxonalar, sport maydonchalari, istirohat va botanika bog'lari mavjud. Boburiylar davrida ham Andijon xo'jaligi, ilm-ma'rifati va madaniyati o'z davriga nisbatan ravnaq topgan shahar bo'lgan.


Bobur bu haqda «Boburnoma» asarida yozib qoldirgan.

Asaka mamlakatning avtomobilsozlik markazidir. Bu yerda «Lacetti», «Chevrolet Tracker», «Chevrolet Captiva», «Malibu», «Cobolt» rusumli yangi

avtomashinalarni ham ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi (103-rasm). Asaka shahri Shahrixonsoy daryosi oqib chiqadigan adirlik etagida joylashgan. Shaharni paxta dalalari, bog'lar, tokzorlar o'rab olgan. Shaharda avtomobil zavodidan tashqari, paxta-moy zavodlari, yengil va oziq-ovqat sanoatining boshqa korxonalari, shisha va kislorod zavodlari, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar bor. Ko'pgina madaniyma'rifiy muassasalar ishlab turibdi. Shahar Andijon, Farg'ona va Marg'ilon yo'nalishidagi yo'llar ustida joylashgan.



101-rasm. O'zbekiston Respublikasida Andijon viloyatining salmog'i (foiz, 2017-yil).



102-rasm. Andijon viloyati.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Viloyatning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari xo'jalik uchun qanday imkoniyatlar yaratishini so'zlab bering.
2. Viloyat qishloq xo'jaligida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Viloyat xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun nima qilmoq lozim?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Fargʻona viloyati.

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy maqsad: Yer yuzi, shu jumladan, mamlakatimiz tabiati haqida maʼlumot berish.

Kishilar faoliyati, hayot tarzi va ishlab chiqarishning hududiy farqlanishi kabi insoniyat, jamiyat hayoti bilan bevosita bogʻliqligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: jonajon Vatanimiz - Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiasini oʻrgatish. Mamlakatimizda ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilishga va umuman aholi turmushining farovonlashuviga yordam beruvchi geografik bilimlar berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Oʻzbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiasini oʻrgatish bu vazifaning muhimligini tushuntirish, oʻz fuqarolik burchini bajarishiga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishiga koʻmaklashish. Iqtisodiy geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni tasvirlash, bayon etish usullarini oʻrgatish.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

oʻzining mustaqil fikrini ogʻzaki va yozma tarzda ifoda eta olish, oʻz gʻoyalarini taqdim va himoya qila olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish, loyihalarni tuzish va himoya qila olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

statistik maʼlumotlar bilan ishlay olish, ularni toʻgʻri solishtira olish, proporsiyalar tuzish orqali nisbiy ulushlarni aniqlay olish, jadval, diagramma va grafiklarni tuzish, ularning mazmunini tahlil qila olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy sanʼat turlariga doir koʻrgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: ogʻzaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida eʼlon qilinadi.

Darsning borishi:


№	Boʻlimlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Oʻtgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va oʻquvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, oʻquvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash. oʻtilgan mavzu yuzasidan savol-javob oʻtkazish, uy vazifasini bajarilishini koʻzdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Viloyatga vodiyning tekislik qismi, Oloy va Turkiston tizmalarining togʻoldilari kiradi. Isfayram, Shohimardon, Soʻx, Isfara daryolarining dehqonchilikda ahamiyati katta. Norin bilan Qoradaryodan bir necha sugʻoruv kanallari chiqarilgan (*ularni oʻquv atlasidan qarab chiqing*). Viloyat yalpi sanoat mahsulotiga koʻra faqat Toshkent viloyatidan keyinda turadi.



104-rasm. Farg'ona viloyati.



Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, ipakchilik. **Sanoatning asosiy tarmoqlari:** elektroenergetika, kimyo, neftni qayta ishlash, qurilish materiallari, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati (104-rasm).

Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi paxta va g'alla yetishtirish hamda pillachilikka ixtisoslashgan. Ekin maydonining asosiy qismiga paxta va g'alla ekiladi (105-rasm). Bug'doy va arpa bahorikor yerlarda, sholi esa zaxkash yerlarda yetishtiriladi. Makkajo'xori, oq jo'xori va beda hamma tumanlarda paxta bilan almashlab ekiladi.

Bog'dorchilik, uzumchilik uchun viloyatda sharoit qulay. Viloyat anori va anjiri bilan dong chiqargan. Farg'ona viloyatida yaylovlar Andijon viloyatidagiga qaraganda ancha ko'p. Chorva mollari, asosan, qo'y va echkilardan iborat. Viloyat mamlakatda yetishtiriladigan pillaning 20 foizga yaqinini beradi. Sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda og'ir sanoatning salmog'i ancha katta. Neftni qayta ishlash, kimyo va energetika sanoati iqtisodiy rayondagina emas, balki respublikada ham ajralib turadi. Neftni qayta ishlaydigan 2 ta zavod bo'lib, biri Farg'onada, ikkinchisi Oltiariqda joylashgan. Mashinasozlik, metallsozlik va binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ham muhim ahamiyatga ega. Yengil va oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jalik tarmoqlari negizida vujudga kelgan. Sanoat korxonalari Farg'ona-Marg'ilon sanoat rayoni va Qo'qon, Quvasoy sanoat tugunlarida to'plangan. **Transporti.** Viloyat temiryo'l va avtomobil yo'llari bilan yaxshi ta'minlangan. Viloyatdan paxta tolasi va paxta moyi, shoyi, ip-gazlama, trikotaj mollar, quritilgan meva, meva konservalari, mineral o'g'it va sement jo'natiladi. Taxtayog' och, har xil uskunalar, traktorlar, paxtachilik uchun zarur mashinalar, g'alla, un, qand, keng iste'mol buyumlari keltiriladi.

Shaharlari. Viloyatda 9 ta shahar bor. Farg'ona muhim sanoat, transport va madaniyat markazidir. Shahar suv bilan yaxshi ta'minlangan, yozi birmuncha salqin. Shaharda ikkita IEM ishlab turibdi. Iqtisodiy rayonning birlashgan energetika tizimi shu IEMlar asosida shakllangan. Shaharda Farg'ona davlat universiteti, politexnika instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutlarining filiallari faoliyat ko'rsatadi. Ipakchilik ilmiy tadqiqot institute bor. Madaniyat va istirohat bog'lari, favvoralar, xiyobonlar, soya-salqin maydonlar shaharga o'zgacha tarovat beradi. Buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-

Fargʻoniy shu makonda tavallud topgan.

Margʻilon shoyi (atlas) ishlab chiqarishning markazi sifatida qadimdan dong chiqargan shahar. Shaharda paxta, koʻn zavodi, ipak ishlab chiqaruvchi korxonalar bor. Margʻilonliklarning toʻqimachilik malakasi yuksak darajada takomillashdi va keng quloqch yoydi. Margʻilon shoyi kombinati mamlakatdagi eng yirik toʻqimachilik korxonalaridan biridir. Kombinat ayni vaqtda yirik oʻquv markazi hamdir. Unda Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti ham faoliyat koʻrsatmoqda. Mashhur fiqh olimi Burhoniddin Margʻinoniy shu yerda tugʻilgan.

Qoʻqon Fargʻona viloyatining gʻarbida, transport yoʻllari ustida joylashgan. Undan Toshkent, Namangan va Fargʻona tomonlarga temiryoʻl va avtomobil yoʻllari oʻtadi. Mustaqillik yillarida Qoʻqonning sanoati rivojlanib, shahar muhim sanoat tuguniga aylandi. Shahardagi superfosfat zavodi hamda elektr mashinasozligi, toʻqimachilik mashinasozligi zavodlari respublikadagi yirik korxonalardandir. Shahar uzoq vaqt Qoʻqon xonligi poytaxti boʻlgan. U viloyatdagi asosiy madaniyat markazlaridan biridir.

Quvasoy 1954-yilda ishchi shaharchasi oʻrnida barpo etilgan. Shahar yaqinidagi ohak, mergel, gips va gil boyliklari negizida u qurilish materiallari ishlab chiqaradigan sanoat markaziga aylandi. Endilikda sement, shifer, ohak hamda gʻisht zavodlaridan iborat kombinat ishlab turibdi. Mazkur kombinat respublikada ishlab chiqariladigan sementning salmoqli qismini bermoqda. Quvasoy chinni zavodida kosa, piyola, choynak, lagan va boshqa idishlar ishlab chiqarish yildan yilga ortmoqda. *Rishton* - kulolchilik buyumlari ishlab chiqaradigan markaz. Bunday kulolchilik artellari birlashtirilib, kombinatga aylantirilgan. Hozir kombinatda 20 xildan ortiq buyum ishlab chiqarilmoqda.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Xaritadan Fargʻona viloyatining chegaralarini koʻrsatib, uning geografik oʻrni va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarni soʻzlab bering.
2. Viloyat xoʻjaligida qaysi tarmoq tez rivojlanmoqda?

V. Darsni yakunlash: oʻquvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Quvasoy sanoat markazi bilan Qoʻqon sanoat tugunini taqqoslab, eng muhim tafovutlarini tushuntiring.



105-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida Fargʻona viloyatining salmogʻi (foiz, 2017-yil).

OʻIBDOʻ: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

36 listdan iborat geografiya fanidan 8-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**